



SOCIAL CONDITION OF THE POPULATION OF THE SOUTHERN REGIONS OF UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF WORLD WAR II

M. Turayeva

*Doctor of Historical Sciences, Associate Professor
Karshi State University
Uzbekistan, Karshi*

ABOUT ARTICLE

Key words: Uzbek SSR People's Committee, evacuation, front, "Red Peasant," Uzbek SSR Supreme Soviet Organizational Committee, boarding schools, Leningrad, Kiev, Sevastopol, Smolensk, Stakhanovites, collective farms, state farms, Komsomol youth brigades, defense fund.

Received: 13.01.24

Accepted: 15.01.25

Published: 17.01.25

Abstract: This article provides information about the changes in the social life of the population of the southern regions of Uzbekistan during the years of the Second World War, the living conditions of the population, issues related to food supply, and the assistance provided to military personnel and relocated populations.

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O'ZBEKISTON JANUBIY HUDUDLARI AHOLISINING IJTIMOIY AHVOLI

M. To'rayeva

*Tarix fanlari doktori, dotsent
Qarshi davlat universiteti
O'zbekiston, Qarshi*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: O'zSSR XKS, evakuatsiya, front, "Qizil dehqon", O'zSSR Oliy Soveti Tashkiliy komiteti, internat-maktablar, Leningrad, Kiev, Sevastopol, Smolensk, stakanovchilar, kolxoz, sovxozi, komsomol-yoshlar brigadalari, mudofaa fondi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Ikkinchiji jahon urushi yillarida O'zbekiston janubiy hududlari aholisining ijtimoiy hayotida yuz bergan o'zgarishlar, aholining yashash sharoitlari, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash masalalari, harbiy xizmatchilar va ko'chirib keltirilgan aholiga ko'rsatilgan yordamlar xususida ma'lumot berilgan.

СОЦИАЛЬНОЕ ПОЛОЖЕНИЕ НАСЕЛЕНИЯ ЮЖНЫХ РАЙОНОВ УЗБЕКИСТАНА В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

M. Turaeva

Доктор исторических наук, доцент

*Каршинский государственный университет
Узбекистан, Карши*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Народный комитет УзССР, эвакуация, фронт, «Красный крестьянин», Организационный комитет Верховного Совета УзССР, интернат-школы, Ленинград, Киев, Севастополь, Смоленск, стахановцы, колхозы, совхозы, комсомольско-молодежные бригады, фонд обороны.

Аннотация: В данной статье рассматриваются изменения в социальной жизни населения южных районов Узбекистана в годы Второй мировой войны, условия жизни населения, вопросы обеспечения продовольствием, а также помощь, оказанная военнослужащим и переселенным жителям.

Kirish. Ikkinchı jahon urushining boshlanishi butun mamlakat aholisi ijtimoiy ahvolining yomonlashuviga, maishiy turmush sharoitlarining og‘ir ahvolga tushib qolishiga sabab bo‘ldi. Mazkur holat butun O‘zbekiston xalqiga va shuningdek uning janubiy hududlari aholisi ijtimoiy hayotiga ham o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatdi. Urush aholi kundalik turmush tarzining keskin o‘zgarishiga, jumladan, real ish haqi va boshqa daromadlarning pasayishiga, oziq-ovqat tanqisligi sharoitida “kartochka” tizimining joriy etilishi hamda yengil sanoat tarmog‘ini kiyimkechak bilan ta’minalash borasida qator muammolarni vujudga keltirdi. Millionlab insonlarning oxiri ko‘rinmas bo‘lib tuyuladigan urushda tirik qolish muammosi tobora chuqurlashib bormoqda edi. Xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlari harbiy izga tushirildi, “hamma narsa front uchun, hamma narsa g‘alaba uchun!” shiori butun xalqni dushmanqa qarshi birgalikda kurashga birlashtirdi. Eng avvalo, urush oziq-ovqat mahsulotlarini front va frontorti hududlariga yuborilishi, uning taqchilligini kuchaytirib yubordi. Natijada O‘zSSR XKSning 1941-yil 27-dekabrdagi 1982-sonli qarori bilan non uchun kartochkalar joriy etildi[1]. Ishchi va xizmatchilarga 400-500 grammdan, oila a’zolariga esa 300 grammdan non berish belgilandi. Amalda esa aholiga belgilangan me’yorlardan ham kam non berildi. Qishloq aholisining turmush sharoitlari yanada og‘irlashdi. Chunki oziq-ovqat va sanoat mollarini me’yorlangan tarzda taqsimlash qishloq aholisiga joriy etilmadi. Ular, asosan, ishlagan mehnat kunlari uchun deyarli haq ololmasdi. Aholi uchun oziq-ovqat mahsulotlari, davlatga topshirgan qishloq xo‘jalik mahsulotlari miqdoriga qarab qat’iy me’yorlar asosida berish joriy etildi. Bu holat qishloq aholisini oziq-ovqat bilan ta’minalash jarayonini qiyinlashtirdi. Mazkur holatning oldini olish maqsadida respublikada, jumladan, janubiy hududlardagi sanoat korxonalari qoshidagi yordamchi xo‘jaliklar tashkil etishga ruxsat berildi.

O‘zSSR Savdo xalq komissarligi tomonidan 1943-yil 21-dekabrda “Non sarflashni tejash

to‘g‘risida” qaror qabul qilindi va respublikaning barcha hududlarida nonni davlat tomonidan belgilangan narxlardan oshirgan holda sotish taqiqlandi. Ishchi-xizmatchilarga 500 grammidan, ularning oila a’zolariga esa 300-400 grammidan non tarqatish belgilandi hamda qat’iy normada amalga oshirish ta’kidlandi. Keyinchalik bunday tartib un, go‘sht, baliq, don, makaron mahsulotlariga ham o‘rnatildi. Urush davrda aholining muayyan qatlamlarini davlat tomonidan ijtimoiy himoyalash tizimi yaratildi. Aholi tarkibida harbiy xizmatchilarning oilalari, evakuatsiya qilinganlar, urush nogironlari, yetim bolalar deb nomlangan yangi ijtimoiy guruqlar paydo bo‘ldi[2]. Urush yillarida frontga jo‘nab ketgan harbiy xizmatchilarning oila a’zolariga yordam berish harakati butun mamlakat miqyosida keng avj oldi va turli xil holatlarda amalga oshirildi. O‘zbekistonning janubiy hududlarida ham harbiy xizmatchilar va urush nogironlariga imtiyozli yordamlar ko‘rsatish komissiyalari, aholi va korxonalardan tushadigan homiylik mablag‘larini to‘playdigan jamg‘armalar tashkil etildi[3].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Qashqadaryo oblastida 1943-yilning 7-may holatiga ko‘ra, 31,170 nafar harbiy xizmatchilar va urush nogironlarining oilasi mavjudligi aniqlandi. Mazkur oilalarga 67,377 rubl moddiy yordam ko‘rsatildi, 1481 rubllik kiyim-kechak, 2143 rubllik poyabzal tarqatildi. Ularga meva-sabzavotlar yetkazib berish uchun 750,5 ga yerga turli ekinlar ekildi. Jumladan, Qamashi rayonidagi 60 dehqon xo‘jaligidan 55 tasida harbiy xizmatchilarning oilalariga yordam uyushtirish maqsadida maxsus fond tashkil etildi. Ushbu fond a’zolari sayi-harakati bilan aholidan 242 tonna don, 18 tonna sabzavot, 40 bosh sigir, 57 ming so‘m pul to‘plandi va muhtoj oilalrga yetkazildi. Bunday yordamlar turli-xil holatlarda amalga oshirildi. Qarshi rayoni aholisi muhtoj harbiy oilalarning uylarini ta’mirlab berish ishlarini amalga oshirdi. Yakkabog‘ rayoni moddiy yordam jamg‘armasi tomonidan 15000 rubl to‘plandi, 843 ga yerga meva-sabzavotlar ekildi, harbiy xizmatchilar va urush nogironlarining 78 nafariga mayda, 54 nafariga yirik boshli mollar, vaqtincha foydalanish uchun esa 520 bosh sigir ajratildi[4]. Qarshi shahridagi moddiy yordam ko‘rsatish jamg‘armasi 39000 rubl to‘pladi, 44 oilaning uy, hovlilari ta’mirlab berildi. Shuningdek, Shahrisabz shahar moddiy yordam ko‘rsatish jamg‘armasi 24000 rubl, Qamashi rayoni 3200 rubl, Koson rayoni 24000 rubl, Beshkent rayoni 3200 rubl, G‘uzor rayoni 26000 rubl, Beshkent rayoni 90000 rubl miqdorida mablag‘ to‘pladi va ularni muhtoj oilalariga, urush nogironlariga tarqatdi.

1943-yil 28-mart kuni Termiz rayon soveti mehnatkashlari deputatlari VI sessiyasida harbiylarning oilalariga yordam berish chora-tadbirlarini yaxshilash masalasi muhokama qilindi. Sessiya ishida qayd etib o‘tilganidek, rayondagi jangchilarning oilalariga 138000 so‘m nafaqa pullari to‘langanligi e’tirof etildi. Shuningdek, aynan harbiy xizmatchilarning oilalariga tegishli bo‘lgan 392 uy ta’mirlangan va 42 kishiga uy berilgan. Bunday sayi harakatlar Surxondaryo oblastining boshqa hududlarida ham amalga oshirildi. Jarqo‘rg‘on rayonidagi harbiy

xizmatchilarning oilalariga 10 tonna g‘alla, 40 bosh qo‘y, 30000 so‘m pul va boshqa turli xil mahsulotlar tarqatildi. Sho‘rchi rayonidagi harbiy xizmatchilarning ehtiyojmand oilalari uchun 379 ga tomorqaga ekin ekip berildi. Shuningdek, 71490 so‘m miqdorda pul, 18 bosh sigir, 1 bosh ot, vaqtincha foydalanish uchun 110 bosh sog‘in echki, 37 bosh qo‘y tarqatildi. Frontdagilarning oilalari uchun 3228 kg g‘alla, 12667 kg arpa, 19777 kg sholi, 120 kg makkajo‘xori doni, 26280 kg meva, 14 kg yog‘, 40 kg go‘sht, 66 ta tovuq va 123 dona issiq kiyimlar bilan muruvvat ko‘rsatildi.

1941-yil 3-dekabrdan O‘zbekiston Kompartiyasi MKning “Evakuatsiya qilingan sovet fuqarolarini qabul qilish va joylashtirish bo‘yicha” maxsus qarori qabul qilindi[5]. Ushbu qarorga binoan barcha oblastlarda evakuatsiya qilingan aholini qabul qilib olish komitetlari tuzildi. Urushning dastlabki oylarida O‘zbekistonga sanoat korxonalari va ularning 19565 nafar ishchi va xizmatchisi, 40155 oila a’zolari olib kelindi. 1941-yilning dekabr oyigacha Buxoro oblastiga (mazkur yilda Qashqadaryo hududi ham Buxoro oblasti tarkibida edi) 29938 nafar kishi evakuatsiya qilindi. Ulardan 3469 nafari G‘uzor rayoniga, 2640 nafari Qarshi rayoniga[6], qolgan qismi esa Qamashi, Shahrisabz va boshqa rayonlarga G‘uzor, Nishon, Ko‘kdala va boshqa xo‘jaliklarga joylashtirildi.

Surxondaryo hududining Sariosiyo, Denov, Sho‘rchi rayonlariga Polsha davlati fuqarolaridan 2361 nafar kishi ko‘chirib keltirildi. Ularni moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadida aholi tomonidan 2615 so‘m pul ajratildi. Shuningdek, 81 ta turli xil uy-ro‘zg‘or buyumlari, yana 23 ta ko‘rpa, 20 dona ko‘ylak, 18 dona shim, ikki juft etik va boshqa turli-xil mahsulotlar yordam sifatida tarqatildi.

1941–1942 yillarda O‘zbekistonga 716543 nafar kishi evakuatsiya qilindi. ularning 126514 kishi Buxoro oblastiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa[7], ularning 30000 ga yaqini Qashqadaryo hududiga joylashtirildi.

1942-yilning mart oyigacha Surxondaryo oblastiga 719 ta oila yoki 1862 kishi evakuatsiya qilindi. Ulardan 21 xo‘jalik ya’ni 37 nafar kishi Qrim ASSRdan ko‘chirib keltirilgan edi. Mazkur aholining 480 nafari erkak, 1059 nafari ayol, 323 nafari bolalar edi. Ushbu aholining 1480 nafari ishga yaroqli edi. ularning 1209 nafari kolxoza va sovxozlarga, 271 nafari esa turli tashkilot va muassasalarga ishga jalb qilindi. Mazkur davrdagi eng katta muammolardan biri ko‘chirib keltirilgan aholini uy-joy bilan ta’minalash masalasi edi. Urush tufayli yangi uy-joylar qurish masalasi muammo bo‘lganligi bois, aholi bor imkoniyatlardan foydalanib, saroylar, garajlar, yarim yerto‘la uylar, masjid va madrasalarning binolari, omborxonalar, ma’muriy idoralarning xonalari bo‘shatilib, ko‘chirib keltirilgan aholi joylashtirildi. Ba’zi hududlarda temir yo‘l vokzallari yonida uylar qurildi. Ammo ular aholining moddiy va maishiy ehtiyojlarini qondirish

uchun emas balki zarurat yuzasidan amalga oshirildi. Biroq o'zbek xalqi bu borada ham o'zining insonparvar, bag'rikeng xalq ekanligini namoyon etdi.

1944-yil Qashqadaryo oblasti 26-mayida ijroiya komitetining Shahrisabz va Kitob rayonlaridagi maxsus ko'chirib keltirilgan kishilar uchun un va krupa ajratish to'g'risida maxsus qaror qabul qilindi. Ushbu qaror asosida Kitob rayoniga ko'chirib keltirilgan 5 ming kishi uchun har biriga oyiga 8 kg dan non, 2 kg dan krupa, Shahrisabz rayonida ham 5 ming kishi uchun xuddi shu miqdorda oziq-ovqat mahsulotlari tarqatildi.

Evakuatsiya qilingan aholi orasida ko'plab bolalar ham bor edi. Dastlab Toshkent shahridagi markaziy temir yo'l vokzali qoshida bolalarni evakuatsiya qilish markaziy punkti tashkil qilindi. Uning bo'limlari respublikaning barcha hududlarida tashkil etildi. Evakuatsiya punkti xodimlari, ko'chirib keltirilgan bolalarni qabul qilib olish, joylashtirish, ularni kerakli narsalar bilan ta'minlash, tibbiy yordam ko'rsatish ishlari ustidan nazorat qilib turdilar.

Tahlil va natijalar. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, faqat 1941-yil 25-noyabrdan 1942-yil oktabrga qadar respublikaning evakuatsiya markazlari orqali 15649 nafar bola qabul qilib olingan[8]. Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonda qiyin sharoitlar uchun tashkil etilgan evakuatsiya markazlari jiddiy kamchiliklarga qaramasdan katta hajmdagi ishlarni amalgaga oshirdi. Shuningdek, urush yillarida o'zbek xalqi evakuatsiya qilingan yetim bolalar uchun nafaqat bolalar uylarini tashkil qildi, hattoki o'z oilalariga ham qabul qilishdi.

O'zbekistonga bolalar bilan birgalikda bolalar uylari ham ko'chirib keltirildi. 1941–1942 yilda respublikaga front oldi shaharlaridan 78 ta bolalar uyi evakuatsiya qilindi. Ushbu bolalar uylarining 50 tasi saqlanib qolingga. Ularning 9 tasi Buxoro oblastiga joylashtirilgan. Shuningdek, 28 ta ko'chirib keltirilgan bolalar uylari tarqatilib, ulardagi bolalar respublikadagi boshqa bolalar uylariga, internatlarga hamda qolganlari esa jamoa va alohida shaxslar tarbiyasiga berilgan. Urush yillarida respublikada jami 17 ta polyak bolalar uylari tashkil etildi[9]. Ulardan bittasi Beshkent rayonida tashkil etildi. Mazkur bolalar uyida 54 nafar polyak bolalari tarbiyalandi. Kitob rayoniga 60 nafar polyak bolalari yakka va jamoa tarbiyasiga olindi.

1941-yilning 3-dekabrida Buxoro oblastiga 6 ming bola keltirildi. Front yoqasidan ko'chirib keltirilgan bolalarni joylashtirish va kerakli yordamlarni berish bo'yicha maxsus ko'rsatmalar berildi. Ularning 1800 nafari Qashqadaryo rayonlariga quyidagicha taqsimlandi: G'uzor rayoniga 150 ta, Qarshi rayoniga 160 bola, Yakkabog' va Kitob rayonlariga 220 tadan, Chiroqchi rayoniga 150 ta, Shahrisabz rayoniga 300 ta, Koson rayoniga 120 ta bola joylashtirildi[10].

1942-yil boshida Termiz shahriga 17 nafar bola olib kelindi. Ularning 13 nafari 16 yoshdan katta bolalar, 4 nafari ota-onasiz qolgan bolalar edi. Mazkur yilning fevral oyida yana Surxondaryo oblastiga 64 nafar kishi ko'chirib keltirildi. Ularning 19 nafari yosh bolalar bo'lib,

shundan 3 nafari ota-onasiz edi. Mazkur yilning oxirigacha Surxondaryo oblastiga yana 966 kishi ko‘chirib keltirildi. Ularning 208 nafari 1-8 yosh oralig‘idagi bolalar, 200 nafari esa 8-15 yoshdagi bolalar edi. Ko‘chirib keltirilgan bolalar uylari turli xil tashkilot va muassasalarining qaramog‘i biriktirildi. Kiyev shahridan ko‘chirib keltirilgan va Qarshi shahrida joylashtirilgan bolalar uyini Nishon sovxozi otaliqqa oldi. Shuningdek, bolalar uylari uchun zarur buyumlar, xususan, karavot, to‘saklar, stol-stul, kiyim-kechak bilan ta’minalash ham mahalliy xo‘jaliklar hisobidan amalga oshirildi. 1942-yil 12-martda Yakkabog‘ rayoni mashina traktor stansiyasi ishchilari o‘zlarining ish haqlaridan bir qismini bolalar uylariga o‘tkazib berish to‘g‘risida qaror qilishgan[11]. G‘uzor rayonidagi bolalar uyiga “G‘uzor” va “Sho‘ro” dehqon xo‘jaliklari homiylik qildi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, urush yillarida Qashqadaryo oblastiga 2491 nafar ota-onasiz qolgan, urush vayronalari ostidan yoki qamal qilingan shaharlardan turli millatga mansub bo‘lgan bolalar ko‘chirib keltirilgan.

1943-yilning 5-fevralida Sherobod rayonida ham urush tufayli yetim va qarovsiz qolgan bolalar uchun 120 o‘rinli bolalar uyi tashkil etildi. Barcha kolxozi va sovxozlarga bolalar uyiga g‘amxo‘rlik qilish vazifasi yuklandi[12]. Butun respublikada bo‘lganidek janubiy hududlar aholisi ham yetim qolgan bolalarni o‘z xonadonlariga asrab olish jarayonlarida faol ishtirot etdilar. Ana shunday oliyjanob insonlardan biri Sherobod rayoni G‘urjak qishlog‘ida yashovchi Egamberdi Quvvatov besh yoshli o‘g‘il bolani, Qunduz Iskandarovka ikki yoshli qiz bolani, Xoliq Jo‘rayev sakkiz yoshli o‘g‘il bolani, oblast sog‘liqni saqlash bo‘limi ishchisi Galiyeva uch yoshli bolani, oblast xalq ta’limi bo‘limi xodimi Lesenkin besh yoshli qiz bolani, Sherobod raykomi ishchisi V. Korchak 2-3 yoshli qiz va o‘g‘il bolani, uy bekasi K.I. Kolesova ikki yoshli qiz bolani o‘z tarbiyasiga oldilar.

1944-yilga Qashqadaryo oblastidagi bolalar uylari soni 14 tani tashkil etdi[13]. Ularda 1976 nafar bolalar tarbiyalandi. Shahrisabz rayoni xalq ta’limi bo‘limi mudiri Xoyim Yoqubov[13] mahalliy aholining bevosita yordami asosida, rayondagi bolalar uyida tarbiyalanayotgan 300 dan ortiq bolalarni turli xildagi kiyim-kechak bilan ta’minalash jarayoniga yetakchilik qildi. Shu yili Surxondaryo oblastidagi bolalar uylari soni 7 taga[14], ulardagi bolalar soni 1146 nafarni tashkil etdi. Ammo mazkur bolalar uylarida 785 ta karavot, 725 ta matras, 1627 ta choyshab, 450 ta ko‘rpa, 2244 ta sochiq va bolalar uchun kiyim-kechaklar yetishmayotganligi ham e’tirof etildi[15].

Ikkinci jahon urushi yillarida aholi salomatligini saqlash masalasi ijtimoiy sohaning muhim tarmoqlaridan biri edi. Bu davrda tibbiyat xodimlari zimmasiga ham mas’uliyatlari vazifalar yuklandi.

1941-yilda respublika sog‘liqni saqlash tizimi uchun 330556 ming rubl ajratildi. Mazkur mablag‘ning 282455 ming rubli davolash ishlariga, 43600 ming rubili kadrlar tayyorlash

tizimiga, 4800 ming rubli sohani rivojlantirish uchun ajratildi[16]. Mazkur yilda Qashqadaryo hududida 819 o‘rinli 20 ta kasalxona, 68 ta feldsherlik punkti, 4 ta ambulatoriya, 3 ta vетdispanseri, 2 ta tubdispanseri bo‘lib, ularda 96 nafar vrach faoliyat ko‘rsatdi. Urush yillarida ko‘chirib keltirilgan aholi o‘rtasidagi tibbiyot xodimlari ham sog‘liqni saqlash sohasiga jalgilindi.

1945-yilda oblast tibbiyot muassasalarida asbob-uskuna, jihozlar, eng asosiysi, mutaxassislar yetishmadi. Oblast bo‘yicha 263 nafar vrach o‘ringa 129 nafar, 204 nafar feldsher o‘rniga 80 nafar, 130 nafar akusher o‘rniga 29 nafar, 382 nafar hamshira o‘rniga 287 nafar kishi ishladi.

Xulosa va takliflar. Xullas, Ikkinchiji jahon urushi yillarida butun mamlakat aholisining ijtimoiy holati talab darajasidan juda past edi. Aholi o‘rtasida oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talab oshib ketdi. Urush davrida aholining muayyan qatlamlariga nisbatan davlat tomonidan ijtimoiy himoyalash tizimi yaratildi. Ijtimoiy sohaning muhim tarmog‘laridan bo‘lgan sog‘liqni saqlash tizimida ko‘plab tibbiyot muassasalari faoliyat ko‘rsatdi. Qarshi va Termiz shaharlarida harbiy gospitallar faoliyat olib bordi. Ammo urush yillarida aholiga tibbiy yordam ko‘rsatish tizimlarida anchagina muammolar ham mavjud edi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘z MA. R-91-fond, 10-ro‘yxat, 7- yig‘ma jild, 262-varaq.
2. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. –Toshkent, “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2000. 12-tom. – B. 177.
- 3.O‘z MA, R-96-fond, 2-ro‘yxat, 423- yig‘ma jild, 75-varaq.
4. Qashqadaryo VDA, 142-fond, 1-ro‘yxat, 24-yig‘ma jild, 21-varaq.
5. Surxondaryo VDA, 45-fond, 1-ro‘yxat, 3- yig‘ma jild, 30-varaq.
6. Po‘latov I. Buyuk g‘alabada O‘zbekiston hissasi. – Toshkent, 1974. – B. 15.
- 7.Turdiyev S. Jasorat unutilmaydi. 1941–1945 urush yillarida Qarshiliklar. – Qarshi: “Nasaf”, 1997. – B. 56.
8. Kommunisticheskaya partiya Uzbekistana v godi Velikoy Otechestvennoy Voyni. Letopis sobitiy. Ch. V. (iyun 1941–1945 gg.). – Tashkent, 1980. – S. 59.
9. Fashizm ustidan qozonilgan g‘alabada O‘zbekistonning tarixiy hissasi (1941–1945 yy.) – Toshkent: “Fan”, 1996. – B. 294.
10. “Qashqadaryo haqiqati” gazetasi. 1942 yil 18 yanvar.
11. Nasriddinov A., Bo‘tayev A. Qashqadayo frontga. – Qarshi: “Nasaf”, 1995 – B. 13.
12. SHerobod tuman davlat arxiv, 42-fond, 1-ro‘yxat, 371-yig‘ma jild, 279-varaq.
13. Irkayeva N. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari Ikkinchiji jahon urushi yillarida. – Toshkent: “Yangi nashr”, 2015. – B. 59.
14. Mahmudov V. Qashqadaryo xalq ta’limining taraqqiyot yo‘li. – Qarshi: “Nasaf”, 1999. – B. 9.
15. Рахимов Э.В. Социално-экономические основы развития здравоохранения в Узбекистане. – Ташкент, 1984. – С. 68.

16. Ergasheva Y. A., Vasieva D. I., Murtazova S. B. Political persecutions and ideological pressure on the creative intellectuals of Uzbekistan in post-war decades //International Journal of Recent Technology and Engineering. – 2019. – T. 8. – №. 2 S10. – C. 374-377.